

QOIDALAR

Rag'batlantiruvchi reklama tadbirini o'tkazish «Mobil ilovada 15% chegirma»

Atamalar va ta'riflar

Aksiya – Iste'molchilarning Tashkilotchi va u ko'rsatayotgan xizmatlarga e'tiborini jalb etishga qaratilgan «Mobil ilovada 15% chegirma» rag'batlantiruvchi reklama tadbiri. Aksiya lotereya, qimor o'yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa tadbir hisoblanmaydi.

Tashkilotchi – Centrum Air brendi ostida faoliyat yurituvchi «MY FREIGHTER» mas'uliyati cheklangan jamiyati; davlat ro'yxatidan o'tgan sana – 03.01.2020; STIR - 306985993; yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Lashkarbegi MFY, Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 262-uy. Havo tashuvlari Centrum Air brendi ostida faoliyat yurituvchi «MY FREIGHTER» MChJ yuridik shaxsi tomonidan amalga oshiriladi.

Ishtirokchi – 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan, o'zi yoki boshqa yo'lovchi uchun Aksiyali aviachiptani xarid qiladigan muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs.

Aksiyali aviachipta – ushbu Qoidalar shartlariga muvofiq savdo davrida chegirma bilan rasmiylashtirilgan va to'lov amalga oshirilgan aviachipta.

Mobil ilova – iOS va Android platformalari uchun mo'ljallangan Centrum Air rasmiy mobil ilovasi bo'lib, Aksiya doirasida Aksiyali aviachiptalarni xarid qilishning yagona kanali hisoblanadi.

1. Aksiya haqida umumiy ma'lumot

1.1. Aksiyaning mazmuni Mobil ilovada xarid qilinganda Centrum Air aviakompaniyasining barcha muntazam yo'nalishlari va barcha tarif guruhlaridagi aviachiptalar tarifiga 15% (o'n besh foiz) chegirma taqdim etishdan iborat.

1.2. Sotuv davri: 2026-yil 11-sentyabr soat 00:00 dan 12-sentyabr kuni yakuniga qadar (Toshkent vaqti bilan, UTC+5).

1.3. Parvozlar davri: 2026-yil sentyabr; aviachipta savdo davrida tegishli reys amalga oshirilishidan oldin rasmiylashtirilishi va to'lanishi lozim.

1.4. Aksiya Centrum Air aviakompaniyasining barcha muntazam yo'nalishlariga amal qiladi. Aksiya charter reyslariga tatbiq etilmaydi.

1.5. Sotuv kanali: faqat Centrum Air Mobil ilovasi. Ushbu Aksiya rasmiy saytda, kassalarda, agentlik tarmog'i va aloqa markazi orqali amal qilmaydi.

1.6. 15% (o'n besh foiz) chegirma faqat aviachipta rasmiylashtirilayotgan paytda amalda bo'lgan tarifga qo'llaniladi. Soliq va yig'imlar chegirma hisoblanadigan bazaga kirmaydi hamda to'liq miqdorda to'lanadi. Aksiyali aviachiptaning yakuniy qiymati 15% chegirma qo'llanilgan tarif va tegishli soliq hamda yig'imlardan tashkil topadi.

1.7. Aksiya Centrum Air aviakompaniyasining barcha tarif guruhlariga amal qiladi. Tashish shartlari tanlangan tarif guruhini qo'llash qoidalar va ushbu Qoidalar asosida belgilanadi.

1.8. Ushbu Aksiya doirasidagi taklif boshqa aksiyalar, chegirmalar, promokodlar va maxsus takliflar bilan qo'shib qo'llanilmaydi.

1.9. Aviachiptaning tegishli soliq va yig'imlarni o'z ichiga olgan yakuniy qiymati to'lov amalga oshirilishidan oldin ko'rsatiladi. Tanlangan tarifga kiritilmagan qo'shimcha xizmatlar (me'yordan ortiq bagaj, o'rindiqliq tanlash, ovqatlanish va boshqa xizmatlar) Tashkilotchining amaldagi narxlari bo'yicha alohida to'lanadi.

1.10. Aksiya shartlari haqidagi ma'lumotlar www.centrum-air.com saytida, Mobil ilovada va Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida taqdim etiladi.

2. Aksiya da ishtirok etish shartlari

- 2.1.** Ishtirok etish uchun savdo davrida belgilangan parvozlar davriga to'g'ri keladigan reysni tanlash, yo'lovchi haqidagi ishonchli ma'lumotlarni kiritish hamda Centrum Air Mobil ilovasida Aksiya aviachiptani rasmiylashtirib, to'lovni amalga oshirish lozim.
- 2.2.** To'lovni amalga oshirishdan oldin Ishtirokchi chegirma qo'llanilganini, yakuniy narxni va tanlangan tarif shartlarini tekshiradi. To'lov amalga oshirilmagan bronning yaratilishi o'z-o'zidan Aksiya aviachipta xarid qilinganini tasdiqlamaydi.
- 2.3.** Aksiya aviachiptaning xarid qilinishi Ishtirokchi ushbu Qoidalar bilan tanishganini va ularga roziligini anglatadi.
- 2.4.** Ishtirokchi boshqa yo'lovchining ma'lumotlarini taqdim etish va ulardan foydalanish uchun qonuniy asoslarga ega bo'lsa, uning nomiga aviachipta rasmiylashtirish huquqiga ega.
- 2.5.** Ishtirokchi taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligini va tashishni rasmiylashtirish uchun qonuniy asoslar mavjudligini kafolatlaydi. Aksiya da ishtirok etish uchinchi shaxslarning huquqlarini buzmasligi kerak.

3. Texnik shartlar va javobgarlik

- 3.1.** Aviachiptalarni rasmiylashtirish va to'lash bronlash tizimi hamda to'lov xizmatlarida texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Ishtirokchi internet tarmog'iga kirish imkonini va foydalanayotgan qurilmasining soz holatda ishlashini mustaqil ravishda ta'minlaydi.
- 3.2.** Texnik nosozlik yuz bergan yoki aviachipta taqdim etilmasdan pul mablag'i yechib olingan taqdirda, Ishtirokchi to'lov va bron holatini tekshirtirish uchun Tashkilotchining qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi lozim.
- 3.3.** Texnik nosozlikning o'zi savdo davrini uzaytirmaydi. Uning amalga oshirilgan to'lovlar va rasmiylashtirilgan tashuvlarga doir oqibatlari qonunchilik hamda tashish shartnomasi shartlariga muvofiq hal etiladi.
- 3.4.** Aksiya shartlarini chetlab o'tishga, bronlash va to'lov tizimlari ishiga aralashishga yoki noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanishga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'yilmaydi. Tomonlarning javobgarligi amaldagi qonunchilik asosida belgilanadi.

4. Shaxsga doir ma'lumotlar

- 4.1.** Aviachiptani rasmiylashtirish va tashishni amalga oshirish maqsadida Tashkilotchi Ishtirokchi va yo'lovchining quyidagi shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlaydi: familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lsa), aloqa ma'lumotlari, tug'ilgan sanasi, jinsi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari, shuningdek, bron va parvoz haqidagi ma'lumotlar.
- 4.2.** Boshqa yo'lovchi, shu jumladan bola nomiga aviachipta rasmiylashtirilganda, Ishtirokchi uning shaxsga doir ma'lumotlarini taqdim etish va qayta ishlash uchun zarur qonuniy asoslar mavjudligini ta'minlaydi.
- 4.3.** Shaxsga doir ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, Tashkilotchining majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan muddatlarda, shuningdek, qonunchilikda belgilangan muddatlarda qayta ishlanadi.
- 4.4.** Aksiya aviachiptani xarid qilish orqali Ishtirokchi Tashkilotchining maxfiylik siyosati bilan tanishganini tasdiqlaydi: <https://centrum-air.com/ru/privacy-policy>.

5. Boshqa shartlar

- 5.1.** Bagaj va qo'l yukini tashish me'yorlari, ovqatlanish, bronni o'zgartirish, qaytarish va tashishning boshqa shartlari tanlangan tarifni qo'llash qoidalarini hamda yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi asosida belgilanadi.
- 5.2.** Ishtirokchi va yo'lovchi zarur hujjatlarning mavjudligini hamda viza, migratsiya, sanitariya va boshqa majburiy talablarga rioya etilishini ta'minlaydi. Bolani tashishda voyaga yetmaganlarning hujjatlari va ularga hamrohlik qilishga doir talablar ham qo'llaniladi.

5.3. Reys bekor qilingan yoki o'zgartirilgan taqdirda, yo'lovchining huquqlari va Tashkilotchining majburiyatlari qonunchilik, Tashish qoidalari hamda havo transportida tashish shartnomasi asosida belgilanadi. Aksiyada ishtirok etish yo'lovchining majburiy huquqlarini cheklamaydi.

5.4. Tashkilotchi ushbu Qoidalarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ruxsat etilgan doirada o'zgartirish kiritish huquqiga ega. O'zgartirishlar haqidagi ma'lumot ularning kuchga kirish sanasi ko'rsatilgan holda rasmiy sayt va Mobil ilovada joylashtiriladi. O'zgartirishlar avval rasmiylashtirilgan va to'langan tashish shartlarini yomonlashtirmasligi kerak.

5.5. E'tirozlar va nizoli masalalar Tashkilotchiga yozma shaklda yuboriladi va muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi; kelishuvga erishilmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

5.6. Ushbu Qoidalarda tartibga solinmagan barcha masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Tashkilotchining Tashish qoidalari va yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi shartlariga amal qiladi.